

JADIDLAR TAFAKKURI VA FAOLIYATIDA MAORIF MASALALARI

Nosirova Nargiza Rustamovna

Yashnobod tumani 69 - maktab tarix fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17052043>

Jadidchilik harakatining eng muhim tomonlari ma'rifatparvarlik g'oyalari bo'lib, bu g'oyalalar o'qish va o'qitish usullariga isloh kiritish – yangi usul mакtablarini tashkil qilish, o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish, darsliklar yaratishda, ayniqsa yorqin ko'rindi. O'zлari tashkil qilgan maorif tizimi orqali shakllanib kelayotgan yoshlarga ijobjiy ta'sir ko'rsatishga intilganlar. Yangi usul mакtablari Turkistonda jadid ma'rifatchiligining dastlabki qadami bo'lishi bilan birga to bu harakat siyosiy tus olguniga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmadı.

Maktab maorif tizimini isloh qilish orqali taraqqiyot sari yuz tutmoq jadid ma'rifatparvarlarining asosiy g'oyasi, maslagi hisoblangan. Munavvarqoridek xalq, Vatan qayg'usi bilan yashaydigan kishilarning sa'y-harakatlari, faoliyatlarini orqali jadid mакtablari mamlakat ijtimoiy-ma'naviy hayotida ilk o'zgarishlar sifatida yuzaga keldi. "Maorif va madaniyat bog'chasining birinchi darvozasi mакtabdir"¹, - degan edi Munavvarqori. Jadidchilik harakati, shu vaqtgacha islom dunyosida sira ham ko'rilmagan ilg'or va tezkor o'qitish "Savtiya" (tovush) usuliga asoslangan jadid mакtablari tashkil topishidan boshladi. Bu mакtablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o'qish va yozishni o'zlashtiradi. Qadimgi an'anaviy musulmon mакtablarida esa 5-6 yil o'qish kerak bo'lar edi. Aytish mumkinki, "savtiya" usulidagi jadid mакtabi Vatanimiz tarixidagi buyuk kashfiyotlar silsilasini boyitdi. "Usuli jadid" mакtablarida milliy ma'naviyati yuksak, millat, Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish birinchi o'rinda turgan. Jadid pedagoglarining xizmatlari shundan iborat ediki, ular mакtablarda ona tilida ta'lim – tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma'naviyati asoslarini o'qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o'zligini saqlovchi asosiy vosita deb ona tili va milliy adabiyot deb bildilar².

Yangi usul mакtablarining boshqa mакtablardan farqi va yutuqlari shunda ediki, bu tipdag'i mакtablarda sinf dars tizimiga o'tildi. Dars jarayonida ko'rgazmali usullardan foydalanish ancha samara berishini isbotladi. Sinf xonalarining yorug' va ozoda ekanligi, partalarda o'tirib dars o'qitilishi, dars oralig'ida tanaffuslarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sinfdan sinfga o'tayotgan imtihon tizimining joriy etilishi, chorak yakunida ta'til tizimlari bu ta'lim sohasidagi chinakam yangilik edi. Mакtablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya mакtablari eski usul mакtablaridan ta'limning sifati bilan ham farq qilgan edi.

Jadid mакtablarining soni ortib borgan sari ularda ham dars o'tish uslubi, tizimi takomillashib borgan. Imtihonlar esa keng xalq ommasi ko'z o'ngida, qishloq yoki shaharlarning ziyoli va ulamolari davrasida "Imtihon majlisi" nomi ostida o'tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul mакtablari o'zining ustunlik tomonlarini namoyish eta olgan edi. Aksariyat odamlar esa imtihondan mammun bo'lib tarqalganlar. Ayrim adabiyotlarda Turkistondagi dastlabki yangi usul mакtabi sifatida Is'hoqxon Ibratning mакtabi eslatiladi. Uning mакtabida Yevropa tillaridan darslar ham o'tilgan.

¹ Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 151.

² Долимов У. Жадидчиликнинг тамал тоши. // Жаҳон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2010. №1.

Mustamlaka ma'murlari yangi usul maktablaridagi darsliklar, ularning siyosiy-mafkuraviy yo'naltirilganligiga ham e'tibor qaratganlar. O'quv inspektsiyasi tomonidan ushbu maktablar qattiq nazorat ostiga olingan³. Jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy asariga yozilgan so'z boshida ushbu jumlalarni keltiradi. "... ilk bor "usuli jadid", "usuli savtiya" nomlari bilan shuhrat topgan yangi usul mакtabni Turkistonda shular tashkil qildilar. Shular birinchi bo'lib zamonaviy oliy mакtab g'oyasini ilgari surdilar.., o'nlab jamiyatlar, shirkatlar uyuştirib, ular yordamida qanchadan – qancha yoshlarni taraqqiy etgan Ovropa mamlakatlariga o'qishga yuborishga muvaffaq bo'ldilar. O'zbek teatrining birinchi g'ishtini qo'ygan, nashru matbuotni boshlab bergen ham shular"⁴. XX asr boshlariga kelib, bu maktablarning soni shu darajada tezlik bilan ko'payib ketdiki, chor hukumati birini yopsa, ikkatasi ochilar edi, mahalliy reaksiyon ulamolarning qarshiligi ham ko'p hollarda endi avvalgiday ish bermay qoldi. A.V.Pyaskovskiyning ma'lumot berishicha, 1895-1901 yillarda Turkistonda 30 jadid mакtabi bo'lib, Toshkentda to'rtta usuli jadid mакtabi tashkil topgan bo'lsa, ... 1917 yil fevral voqeaları arafasida Turkistonda 92 jadid usuliga asoslangan yangi turdagı mакtablar qayd qilingan edi⁵.

Shunday qilib, dastlab chor hukumati, so'ngra sovet hukumati qarshiligi sabab o'lkada jadid namoyondalari tomonidan tashkil etilgan yangi usul mакtablari faoliyatiga barham berildi.

Jadidlar tomonidan ochilgan yangi usul mакtablarining ko'payishi mahalliy aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida siyosiy, madaniy, ma'naviy g'oyalarning tarqalishi, aholi dunyoqarashining o'zgarishiga olib keldi. Ular Turkiston yoshlari bilimli, madaniyatli bo'lishi uchun kurashdilar.

Turkiston ma'rifatparvarlari mahalliy xalqlarning siyosiy ongini shakllanytirish va oshirish uchun, o'lkadagi mакtab- maorif sistemasini yangicha shakllantirish, rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni yangicha usullar bilan o'qitib, zamon talablariga javob bera olish darajasiga ko'tarish uchun xizmat qildilar. O'zlarining buyuk ishlarini milliy manfaatlar bilan bog'lab, rivojlantirib, amalgalashdilar.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2003.
2. Долимов У. Жадидчиликнинг тамал тоши. // Жаҳон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2010. №1.
3. Isoqboyev A A. Turkiston ijtimoiy – siyosiy va madaniy hayotida tatar- boshqird ma'rifatparvarlarining faoliyati (XIX asr oxiri XX asr boshlari). Namangan, 2008.
4. Behbudiy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.

³ Isoqboyev A A. Turkiston ijtimoiy – siyosiy va madaniy hayotida tatar- boshqird ma'rifatparvarlarining faoliyati (XIX asr oxiri XX asr boshlari). Tarix fan nomz. diss. – Namangan, 2008. – B. 42.

⁴ Behbudiy A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – B.5-6.

⁵ Пясковский В. Революция 1905-1907 года в Туркистане. изд. АН СССР. – Москва: академ наук, 1958. – Стр. 99-100.